



ISSN 2181-1008
DOI 10.26739/2181-1008



ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

НАУЧНОЕ ПЕРИОДИЧЕСКОЕ ИЗДАНИЕ



ТОМ 3, НОМЕР 1

2023



**SAMARQAND VETERINARIYA
MEDITSINASI INSTITUTI**

ISSN 2181-1008

DOI 10.26739/2181-1008

ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

3 ЖИЛД, 1 СОН

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

ТОМ 3, НОМЕР 1

BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK

VOLUME 3, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА | BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK

№1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1008-2023-1>

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

А.С. Даминов
Узбекистан

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Х.Б. Юнусов
Узбекистан

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

А.Р. Курбонов
Узбекистан

МАЪСУЛ КОТИБ | ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ | RESPONSIBLE SECRETARY:

Н. Б. Дилмуродов, Самарканд, Узбекистан

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:
РЕДАКЦИОННЫЙ КОЛЛЕГИЯ:
EDITORIAL BOARD:

ТАҲРИРИЯТ КЕНГАШИ:
РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:
EDITORIAL BOARD:

Б. Т. НОРКОБИЛОВ
Ташкент, Узбекистан

Ш. А. ДЖАББАРОВ
Ташкент, Узбекистан

Б. А. ЭЛМУРАДОВ,
Ташкент, Узбекистан

Н. А. БОБОКУЛОВ,
Ташкент, Узбекистан

А. А. НУРМАТОВ,
Ташкент, Узбекистан

Б. Б. БАКИРОВ
Самарканд, Узбекистан

Х. Б. НИЁЗОВ,
Ташкент, Узбекистан

Р. Б. ДАВЛАТОВ,
Ташкент, Узбекистан

Э. С. ШАПТАКОВ
Ташкент, Узбекистан

Х. С. САЛИМОВ
Самарканд, Узбекистан

М. А. РУЗИМУРАДОВ
Ташкент, Узбекистан

Д. А. АЗИМОВ
Ташкент, Узбекистан

А. И. ЯТУСЕВИЧ
Минск, Республика Беларусь

Д. А. ДЕВРИШОВ
Москва, Российская Федерация

Ю. А. ЮЛДАШБОЕВ
Москва, Российская Федерация

Д. Н. ФЕДОТОВ
Минск, Республика Беларусь

К. Н. НОРБОЕВ
Самарканд, Узбекистан

С. Ю. ЮСУПОВ
Самарканд, Узбекистан

Х. А. ХАМДАМОВ
Ташкент, Узбекистан

А. А. ЭЛМУРАДОВ
Самарканд, Узбекистан

Б. Д. НАРЗИЕВ
Самарканд, Узбекистан

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Дилмуродов Н.Б., Ниёзов Ҳ.Б., Пардаева Ш.А., Мирзаев С.М., Бозоров Қ. СИГИРЛАРДА ПОДОДЕРМАТИТ ЖАРАЁНЛАРИНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ ОМИЛЛАР ВА КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	5
2. Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich, Yusupov Azamat Rustam o'g'li OTLARDA SAKRASH BO'G'IMINING ASEPTIK YALIG'LANISHINI DAVOLASH.....	11
3. Ўрмонов Абдурасул Хасанович, Таштемиров Равшанбек Матлюбович СПОРТ ОТЛАРИДА МИОЗИТЛАРНИНГ КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ДАВОЛАШ.....	16
4. Ниёзов Ҳаким Бақойвич, Абдиев Салоҳиддин Буранович ТУҒИШДАН КЕЙИНГИ ЭНДОМЕТРИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН СИГИРЛАРНИ ТУРЛИ УСУЛЛАР БИЛАН ДАВОЛАШДА УЛАРНИНГ КЛИНИК – ФИЗИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	20
5. Djumanov Sobir Murodovich, Rashidov Bekjon SIGIRLARDA VOLA TASHLASHLARNI SABABLARI VA OLDINI OLISH.....	27
6. Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich, Chinmurodov Jahongir To'lqinjon o'gli SPORT OTLARIDA OG'IZ BO'SHLIG'I JAROHATLARI ETIOLOGIASI, KILINIKASI, DIAGNOSTIKASI, PROFILAKTIKASI.....	32
7. Даминов Асадулло, Боймуродов Хусниддин, Суяров Султон, Тошқузиёв Баҳодиржон ЗАРАФШОН ДАРЁСИ ЎРТА ОҚИМИ СУВ ЭКОТИЗИМЛАРИДА LYMNAEIDAE (RAFINESQUE, 1815) ОЙЛАСИ МОЛЛЮСКАЛАРИНИ ТАРҚАЛИШИ ВА УЛАРНИ ГЕЛЬМИНТОЗЛАРНИНГ ОРАЛИҚ ХЎЖАЙИНИ СИФАТИДАГИ ЎРНИ.....	37
8. Раҷамуродов Зайнитдин Туробович, Ахроров Маъруф Насимжонович ЯНГИ ТЎҒИЛГАН ҚЎЗИЛАРНИ ТИРИК ВАЗНИ, МУТЛОҚ ВА КУНЛИК ЎСИШИНИНГ ЁШГА ОИД ДИНАМИКАСИ ЎРГАНИШ.....	42
9. Яхяев Бахтиёр Садуллаевич ВЛИЯНИЕ КОМПЛЕКСНОЙ КОРМОВОЙ ДОБАВКИ НА ПЕРЕВАРИМОСТЬ ПИТАТЕЛЬНЫХ ВЕЩЕСТВ ПРИ ОТКОРМЕ КАРАКУЛЬСКИХ БАРАНЧИКОВ.....	48
10. Ходжаева Насиба, Акбарова Гулирухсор, Джурабаева Дилафруз AZOLLA CAROLINIANANINING MORFOBIOLOGIK ХУСУСИЯТЛАРИ.....	54
11. Qurbonova Zarnigor, Fayziyeva Sitara, Norboyev Qurbon BUZOQLAR DISPEPSIYASINING ANTINATAL SABABLARI.....	60
12. Norboyev.Q.N., Safarov. Sh.I. GOLSHTIN ZOTLI SOG'IN SIGIRLAR KETOZINING KELIB CHIQISH SABABLARI.....	65
13. Safarov M.B., Turdiqulov S. BIOLOGIK FAOL MODDALARDAN AYRIM VITAMINLARNING SOG'IN SIGIRLAR FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI (Adabiyotlar tahlili asosida).....	69
14. Djumanov Sobir Murodovich, Imomaliyev Shohruh SIGIRLARDA BACHADON CHIQISHI SABABLARI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH.....	73
15. Hamroqulov N.Sh., Ergashev J. TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARDA GIPOVITAMINOZLARNING DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI.....	78



UDK: 619:636.1:616.002

Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich
SamDVMCHBU professori
Yusupov Azamat Rustam o'g'li
SamDVMCHBU magistranti

OTLARDA SAKRASH BO'G'IMINING ASEPTIK YALIG'LANISHINI DAVOLASH

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7816523>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada otlarda sakrash bo'g'imi aseptik yalig'lanishining etiologiyasi, klinik belgilari va davolash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mexanik shikastlanish, zo'riqish, pay va pay qini, og'riq, mahalliy harorat, oqsash, "shpat" usuli, mahalliy og'riqsizlantirish.

Таштемиров Равшанбек Матлюбович,
профессор СамГУВМЖБ
Юсупов Азамат Рустам угли,
магистрант СамГУВМЖБ

ЛЕЧЕНИЕ АСЕПТИЧЕСКОГО ВОСПАЛЕНИЯ СКАКАТЕЛЬНОГО СУСТАВА У ЛОШАДЕЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация об этиологии, клинических признаках и лечении асептического воспаления скакательного сустава у лошадей.

Ключевые слова: механическая травма, растяжение, суставы, боль, местная температура, хромота, местная анестезия.

Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich
professor SamSUVMAHB
Yusupov Azamat Rustam ogli
master of SamSUVMAHB

TREATMENT OF ASEPTIC INFLAMMATION OF THE HEEL JOINT IN HORSES

SUMMARY

This article provides information on the etiology, clinical signs and treatment of aseptic inflammation of the heel joint in horses.

Key words: mechanical injury, sprain, pain, local temperature, lameness, spar method, local anesthesia.

Mavzuning dolzarbligi. Otlarning yuqumsiz kasalliklari barcha kasalliklarning oʻrtacha 94-96 % ini tashkil qiladi. Sport otlarida shikastlanishlar umumiy kasalliklarning 86 % ni, 37 % esa mushak, pay va boʻgʻimlarning patalogiyasiga toʻgʻri keladi.

Otlarda boʻgʻim kasalliklari ularni saqlash, oziqlantirish, ekspluatatsiyasi notoʻgʻri boʻlganda hamda infeksiyon kasalliklar mavjudligi va modda almashinuvi buzilganda kelib chiqadi. Undan tashqari boʻgʻim kasalliklari mashq qildirish jarayoni, musobaqalar va milliy ot oʻyinlari qoniqarsiz tashkillashtirilganda, ratsion tarkibida hazmlanuvchi protein, vitaminlar, makro- va mikroelementlar taqchilligi va ratsion tarkibida turli zaharli oʻsimliklar donining mavjudligi ham ular organizmida turli xildagi toksiko-allergik holatlarni kelib chiqishiga va boʻgʻimlar kasallanishiga olib kelishi aniqlangan [1, 2, 3, 4, 5, 6,7].

Yuqorida keltirilgan maʼlumotlarni tahlil qilgan holda, biz otlardagi aseptik boʻgʻim kasalliklarida morfologik oʻzgarishlarni oʻrganish; Samarqand viloyati tumanlarida otlar orasida boʻgʻim kasalliklarining tarqalishini aniqlash; aseptik boʻgʻim kasalliklarini davolashda kimyoviy preparatlar, antibiotiklarning samarali taʼsirini aniqlashga qaror qildi.

Tadqiqot obʼyeksi va uslubiyatlari. Tadqiqotlar Samarqand viloyatining Past Dargʻom, Bulungʻur va Urgut tumanlarida, aholiga tegishli otlar ustida olib borildi. Otlardan zararlangan boʻgʻimlarning morfologik va rentgenologik xususiyatlarini oʻrganish hamda kasallikni samarali davolash maqsadida 9 bosh kasal otlar nazorat (5 bosh) va tajriba (4 bosh) guruhlariga ajratildi.

Olingan natijalar. Tadqiqotlar davrida jami 60 bosh otlar tekshirilganda 12 (20%) bosh otlarda har xil boʻgʻim patologiyalari aniqlandi. Shularning 8 boshida yiringli artrit va yiringli sinovitlar kuzatildi va bu jami tekshirilgan hayvonlarning 13,3 % ni tashkil etdi. Kasallangan hayvonlarning 4 boshida (33,3 %) aseptik sinovit, 2 bosh (16,6 %) otda aseptik artrit kechayotganligi qayd etildi.

Kasallikni chaqiruvchi omillar. Biz davolagan otlardagi aseptik sinovit va boʻgʻim yalligʻlanishlari otlar asfalt va qattiq yoʻllarda tez va uzoq vaqt choptirilganda, koʻpkari oʻyinlarida otlar bir joyda toʻdalanib qolib bir-birini tepishida, ular yuk mashinalariga chiqarib tushirilganda sodir boʻlgan.

Klinik belgilar. Kasallangan hayvonlarning umumiy tana harorati 0,5-1° C ga oshgan. boʻgʻim kattalashgan va shakli oʻzgargan, boʻgʻim divertikullari taranglashgan, boʻgʻim ogʻriqli, harakatlenganda oqsash kuzatiladi. Palpatsiyada mahalliy haroratning koʻtarilishi kuzatiladi. Boʻgʻim harakatlari cheklangan. Hayvon oyogʻini bukkan holatda tutib, yerga tuyoqning uchi bilan tayanadi. Punksiyada sinoviya aralash sargʻish rangda eksudat oqib chiqadi.



1-rasm. Chap orqa oyoq sakrash boʻgʻimining surunkali aseptik yalligʻlanishi (tashqi koʻrinishi va rentgenogrammasi).

Davolash. Davolash ishlari quyidagi sxema boʻyicha olib borildi:

Davolash sxemasi

№	Guruh	Hayvonlar soni	Davolash muolajalari
I.	Nazorat	5	<ol style="list-style-type: none"> 1. 2 soatga sovituvchi kompress. 2. 0,5% li novokain + gidrokortizonni eritmasini bo‘g‘im ichiga yuborish. 3. 48 soatdan so‘ng 2 soatga spirtli isituvchi kompress. 4. Yalliglanishga qarshi klodifen muskul orasiga 3 ml dan 5-6 kun qollanildi. 5. Inrofloksatsilin antibiotigi har-har joyga alohida-alohida sag‘ri muskullari orasiga 3,5 ml, 3,5 ml dan va boyin muskuliga 3 ml dan, jami 10 ml qollanildi.
II.	Tajriba	4	<ol style="list-style-type: none"> 1. 2 soatga sovituvchi kompress. 2. 0,5% li novokain + gidrokortizonni eritmasini bo‘g‘im ichiga yuborish. 3. 48 soatdan so‘ng 2 soatga spirtli isituvchi kompress. 4. Yalliglanishga qarshi klodifen muskul orasiga 3 ml dan 5-6 kun qollanildi. 5. Yallig‘lanishga qarshi ketoprofen 20 kg tirik vazniga 1 ml dan boyinturuq venadan yuborildi. 6. Gentamitsin sulfati antibiotigi yallig‘langan bo‘g‘im atirofiga 3 kun 2 ml dan qollanildi.

Nazorat guruhidagi sakrash (tovon) bo‘g‘imining aseptik yallig‘lanishi bilan otlarda davolash ishlari quyidagi tartibda amalga oshirildi: sakrash bo‘g‘imi sohasiga dastlab 2 soatga sovituvchi kompress qo‘yilib, bo‘g‘im ichiga 0,5% li novokain + gidrokortizon eritmasi yuborildi. 48 soatdan so‘ng 2 soatga spirtli isituvchi kompress bog‘landi. Yalliglanishga qarshi klodifen muskul orasiga 3 ml dan 5-6 kun qollanildi. Inrofloksatsilin antibiotigi har-har joyga va alohida-alohida sag‘ri muskullari orasiga 3,5 ml, 3,5 ml dan va boyin muskuliga 3 ml dan, jami 10 ml qollanildi.

Tajriba guruhidagi otlarda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan davolash ishlaridan tashqari quyidagi amallar bajarildi: Yallig‘lanishga qarshi klodifen vositasi o‘rniga ketoprofen 20 kg tirik vazniga 1 ml dan boyinturuq venadan yuborildi. Inrofloksatsilin antibiotigi o‘rniga Gentamitsin sulfati antibiotigi yallig‘langan bo‘g‘im atirofiga 3 kun 2 ml dan qollanildi.

Muolajalar 7-8 kun davom etildi. Kasal otlar ma‘lum vaqt kasallikning kechishiga qarab mashqlardan va og‘ir ishdan ozod etildi. Saqlash sharoiti yaxshilandi. Ratsion normallashtirildi.



2-rasm. Davolash jarayoni

Patologik jarayonning klinik manzarasi

Kasallangan otlarni tekshirganimizda 6 bosh hayvonda aseptik sinovit, 3 bosh hayvonda aseptik artrit kechayotganligi aniqlandi. Hayvonlarga davolash muolajalari o'tkazilgach ular klinik belgilarida ozroq o'zgarishlar paydo bo'lganligi aniqlandi. Nazorat guruhidagi otlarda davolashning 3–kunlariga kelib tana harorati pasayganligi, bo'g'imlardagi shish ozroq kichrayganligi, bo'g'imlarni palpatsiya va passiv harakat qilinganda kuchli og'riq sezishi va hayvon harakatlanganda oqsash xarakterli bo'lganligi kuzatildi. Bo'g'in kapsulasi, bir oz qalinlashgan bo'lsada kattaligi va bo'g'imlarning harakatida sog'lom oyoqlardan farq qilib turdi.

Davolashning 6–kunida yallig'lanish jarayonining pasayishi, og'riq kamroq kamayishi va oqsashning pasayishi qayd etildi. Patologik uchoqdan ozroq serroz suyuqlik oqib turganligi, uning atrofida yallig'lanish shishining borligi kuzatildi. Bu guruhdagi hayvonlarda davolashning 9–kuniga kelib, sezilarli darajada o'zgarishlar kuzatildi. Bo'g'im atrofida shishlar ancha pasayganligi bilinar–bilinmas og'riq sezishi va oqsashi qayd qilindi.

Davolashning 12 kunlariga kelib bu guruhdagi hayvonlar shikstlangan bo'g'im funksiyasining tiklanganligi, ammo bo'g'imdagi funktsiya 14 kunga kelib to'liq tiklanganligi kuzatildi.

Tajriba guruhidagi kasallangan hayvonlarda davolashning 3–kunida umumiy holati yaxshilanganligi va tana harorati pasayganligi kuzatildi. Bo'g'inlardagi shish pasaygan bo'lsada ozroq serroz suyuqlik oqib ajralib turganligi va hayvon bo'g'imini ozroq bukkan holatda tutib turganligi kuzatildi. Bundan tashqari hayvonlar harakatlanganda shikastlangan oyoqda ozroq tayanch oqsash borligi aniqlandi.

Davolashning 7–kuniga kelib hayvonlarning umumiy holati ancha yaxshilanganligi haroratning yo'qligi kuzatildi, yallig'lanish reaksiyasining ancha sekinlashganligi aniqlandi. Hayvon harakatlanganda oqsash deyarli bilinmaydi, passiv harakat paytida ozroq og'riq sezishi kuzatildi.

Davolashning 9-kunlariga kelib shikastlangan bo'g'im funksiyasining, hamda morfologik ko'rsatkichlarning to'liq tiklanishi qayd etildi.

Yuqoridagi olingan natijalardan shunday xulosa qilish mumkinki otlarda bo'g'imlarning aseptik yallig'lanishlarini davolashda klodifen vositasi muskul orasiga 3 ml dan 5-6 kun va Inrofloksatsilin antibiotigi qo'llanilganda davolash o'rtacha 12 kun davom etgan bo'lsa, ketoprofen vositasi 20 kg tirik vazniga 1 ml dan boyinturuq venaga va Gentamitsin sulfati antibiotigi qo'llanilgan guruhlarda esa davolash muddati 9 kunni tashkil etdi.

Xulosalar:

1. Otlarda uchraydigan sakrash bo'g'imining aseptik yallig'lanishini o'z vaqtida davolanmaganda tana va bo'g'imda o'zgartirib bo'lmaydigan morfologik va fiziologik o'zgarishlarni chaqirishi mumkin.

2. Otlardagi aseptik sinovit va bo'g'im yallig'lanishlari otlar asfalt va qattiq yo'llarda tez va uzoq vaqt choptirilganda, ko'pkari o'yinlarida otlar bir joyda to'dalanib qolganda hosil bo'ladi.

3. Otlarda uchraydigan sakrash bo'g'imining aseptik yallig'lanishini klodifen vositasi va inrofloksatsilin antibiotigi qo'llanilganda davolash o'rtacha 12 kun davom etgan bo'lsa, ketoprofen vositasi va Gentamitsin sulfati antibiotigi qo'llanilganda esa davolash muddati 9 kunni tashkil etdi.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Стекольников, А.А. Содержание, кормление и болезни лошадей / А.А., Стекольников, [и др.]// Санкт-Петербург, 2007. – 624 с.
2. Тимофеев С.В, Филиппов Ю.И, Концевая С.Ю, Кузнецов А.Ф. и др. Общая хирургия животных/ Под ред Тимофеева С.В. — М.: Зоомедлит, 2007. —687 с.
3. Khamzaev, K.A., Tashtemirov, R.M. (2021). TREATMENT OF CHRONIC ASEPTIC INFLAMMATION OF FLEXOR TOE TENDONS IN HORSES. Academicia Globe: Inderscience Research 2 (6), 1-3
4. Tashtemirov, R. M. Dautletbaev, N.P. (2022). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI AYRIM QORAMOLCHILIK XO'JALIKLARIDA TUYOQ KASALLIKLARINING

UCHRASH DARAJASI AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 205-207.

5. Таштемиров Р.М., Даулетбаев Н.П. и Мирзайев С. (2022). РАСПРОСТРАНЕНИЕ БОЛЕЗНЕЙ КОПЫТЕЦ У КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В НЕКОТОРЫХ ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. 2, 13 (дек. 2022), 45–49.
6. Haydarova, S. A., Narziev, B. D., & Tashtemirov, R. M. (2022). DYNAMICS OF X-RAY STATUS AFTER OSTEOSYNTHESIS IN DOG FRACTURES OF INJURY BONES. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 3(8), 126-130.
7. Tashtemirov, R. M. (2022). ZOTLI QORAMOLLARDA PODODERMATITLARNI KELTIRIB CHIQRUVCHI OB'JEKTIV OMILLAR AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 445-448.



**SAMARQAND VETERINARIYA
MEDITSINASI INSTITUTI**

ISSN 2181-1008

DOI 10.26739/2181-1008

ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

3 ЖИЛД, 1 СОН

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА
ТОМ 3, НОМЕР 1

BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK
VOLUME 3, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000